

Ustoz Kamol og'a Mambetovning yorqin xotirasiga bag'ishlayman.  
Og'ir Jinoyat

Soat kechki to'qqizlar chamasi. Mambet Kamolov o'zi ochgan jinoyat ishining rasmiy tomonlarini tugallab qo'yish maqsadida hujjat yozib, ishxonasida haliyam o'tiribdi. Chin yurakdan, ixlos bilan ishlaydigan kasbning o'z gashti bo'ladi. Ishlaganing sayin rohatlanasan. Ko'ngling jo'shib, ruhing yuksaladi.

Mambetning tergov ishiga aralashib, mehnat qilayotganiga o'n yildan oshdi. Shu davr moboynida o'qishda olgan nazariy bilimlarni amalda qo'llab, o'z ustida betinim ishladi. Ishning ko'zini biladigan, tajribali huquqshunos sifatida shahar prokuraturasida ancha tanildi. Birinchi darajali yurist.

Mana shu hozir ishlab, o'tirgan jinoyi ish ham dastlab ochilishi mushkuldek ko'rigan edi. Rostdan ham shunday edi. Dalil, guvohlar yo'q. Isbot bilan bo'yniga qo'ymasang hech kim ham shu ishni men qildim demaydi. Haytovur, ipidan-ignasigacha surishtirib, tahlil qilib, o'rganib, jinoyatlar psixologiyasini bilgani tufayli, tajribasi orqali bir amallab ochdi. Ochilgach esa, xuddi oson ishga o'xshab qoldi.

Ko'pincha u ishda oqshomlari qolib ketardi. Bunga xotini ham avvallari ko'nikmay, yovqarash qilib yurdi. Ishni ish paytida qilib, qolganini ertaga qoldirsa osmon uzilib yerga tusharmidi, deb bobillab ham berardi gohida. Biroq Mambet unday qila olmasdi. Chunki, birinchidan hali aytganimizday, u kasbini juda sevadi. Qolaversa, bu vaqt bilan hisoblashib qiladigan kasblardan emas. Qilmish, jinoyat kun-tuni tinmasdan ishslash, izlanish orqaligina ochiladi. Gohida, ba'zi og'ir jinoyatlarni tushida ham ko'rib chiqadi. Ba'zan esa, jinoyatni kim, qanday amalga oshirganigacha tushida ayon bo'lib, o'ngdag'i ishlariga to'g'ri kelgan paytlari ham bo'lgan. Qisqasi, tergovchining ishi yozuvchilar nikiday kunning xohlagan paytida davom etib ketaveradi. Ish tamom, vaqt bo'lди deb ketib qolsang, вЂњdelobЂќ ustini chang bosaveradi. Uning yechimi vaqt o'tgan sari mushkullashadi. Izi sovumasdan ohib tashlangan ma'qul. Guvohga tungi o'n ikkida borish kerakmi, uyqudan vos kechib borishing shart. Ish ertalabga qoldirilsa, o'sha guvohga jinoyatchi tomonidan ta'sir qilinishi ehtimol.

Membet ishning qadrini yaxshi biladi, madaniyatli kishi sifatida yondashadi. Oilamni shu kasbim orqali boqayapman, obro'-e'tiborim bor, shunday ekan nega endi o'z kasbimga xilof ish qilishim kerak, deya fikr yuritdi. Axir, rahbarlar ham tez-tez e'tirof etishayapti-ku uning fidoyiliginu. Mana o'shalarni maydalab, hijjalab tushuntirgach, xotini ham tinchidi. Ishning dastlabki yillari shunday kechdi.

Odatdagidek, bugun ham xotini Gulzoda qo'ng'iroq qilib, hormang dedi, shirin gaplari bilan erkabal, qachon qaytishini, nima ofqat yegisi kelayotganini obdon so'radi. Ishga berilib ketib, birato'lа bitkazib ketishni ixtiyor etgan edi. Ko'z qiri bilan stol ustidagi soatga qaradi: to'qqizdan o'n minut o'tibdi. Xotiniga hozir yetib borishini yana aytib, go'shakni endigina joyga qo'ygandi, yana telefon jiringlab qoldi. Prokuror, birinchi darajali yurist Ayap Abdambetovich ekan. Hol-ahvol so'rashgach, dedi:

Uyingga qo'ng'iroq qilmoqchi edim, biroq kechqurunlari ham o'tirib ishлаshing esimga tushdi. Rahmat senga.

Yaxshi gap kimga yoqmaydi. Mambetning ko'ksi yanada o'sdi.

Mayli, ishga o'taylik, dedi Ayap Abdambetovich, hozirgina yigirma... kichik tumandagi 39- uy, 1-yo'lak, 3-xonada og'ir jinoyat yuz bergani haqida xabar qilishdi. Ikki kishi o'ldirilgan. Tezda o'sha joyga bor. Men ham yetib boraman.

Xo'p bo'ladi. Mambet uy manzilini yana bir bor so'rab olib, mashinasiga o'tirdi.

Qotillik sodir bo'lган joyga yetib borganida Ayap Abdambetovich, kriminalist, sudmedekspert va ishga aloqador yana bir necha kishilar jam bo'lishgan. Har kim o'ziga tegishli ishga kirishib ketdi.

Birinchi qavatda joylashgan bu uy bir xonali bo'lib, Joldas Madreymovich degan aroqxxo'rni ekan. Uyga kirishdanoq aroq, namlik, ter va tamakining aralash bad bo'yi dimoqqa urildi. Uy egasining boshiga qandaydir temir qurol bilan urishgan, qonga belanib yotibdi. Bo'sag'ada yana bir odam yotibdi chamasi o'lib qolgan. Polga to'shalgan kir, yirtiq palos tusi bilinmaydi: qip-qizil qon. Uyda eski, parti ketib, sharti qolgan divan bor. joldas, ya'ni uy egasi shu divanda yotibdi. Tirik bo'lsa kerak, bilinar-bilinmas nafas oladi. Yo qattiq mast bo'lib uqlab yotibdi, yoki zarba kuchidan hushidan ketgan.

Zo'rg'a qiyshayib turgan stol, uchta kursi xona o'rtasida joylashgan. Stol ustida ikkita, ostida yana ikkita aroq shishalari. Stol ustida labi siniq piyolalar, choynak, qotgan non ushoqlari, piyoq qoldiqlari. вЂњO'zbekiston tarixibЂќ kitobi, ichida ruchka, qog'oz...

Deraza oldida tashqi qoplamasi olingen tranzistor tokka tiqilgan holda ishlab turibdi. Xonada uncha katta bo'lмаган seyf ham bor. Eshigi ochilib qogan. Ichida papka, qog'oz, daftarlar ko'rindi. Ba'zilari polda sochilib yotibdi. Seyf ilgari bu yerda turmaganini hamma payqadi. Chunki, xonaning to'rdagi burchagida seyfga monand to'rt burchakli o'r'in changdan holi ko'rini turibdi, demak, seyf o'sha yerdan bu yerga keltirilgan. Vanna, hojatxona, oshxona obdon ko'zdan o'tkazildi. Iz tushgan joylardan nusxa olindi.

Ayap Abdambetovich bilan Mambet Kamolov barcha ishni tugatib, tungi kafelarning biriga kechki ovqatga borganlarida soat o'n birdan oshgan edi. Jinoyatchi kim bo'lishi mumkinligi haqida qisqagina so'zlashib olishdi. Ikkalasi ham hayron. O'g'rinig ishi deyishsa, aroqxo'rning uyiga kim ham o'g'irlilikka tushadi. Axir, o'g'ri kirayotgan uyida nima bor-yo'qligini chamalab bilib kirar. Joldasning uyida labi siniq piyolalardan boshqa hech nima yo'qligini o'g'ri bilmaydimi? Yoki yangi o'g'rilardan bo'lishi mumkin. Qotilning bularda qasdi bor desak, aroqxo'rning qanday dushmani bo'lishi mumkin?... Ertalab tiniq kalla bilan ish yuritamiz.

Bu ishni ochish oson bo'lmaydi, chamamda, Ayap Abdambetovich? Balki jabrlanuvchi bilan gaplashib ko'rib, biror narsa aniqlarmiz.

Jinoyatchi uni nimaga o'ldirmagan? yana savol berdi Ayap Abdambetovich.

O'ldi deb o'ylagan bo'lishi mumkin. Bittasini o'ldirib, ikkinchisini ayab tashlab ketmas. Yoki nimadandir hushyor tortib shoshgandir. Yoki tajribasi kam jinoyatchimikan?

Unday emas, hiylakor bo'lsa kerak. Bo'pti, hozir dam olamiz. Qolganini ertalab sudmedekspertiza, kriminalist chiqargan xulosalarini jamlab maslahatlasharmiz. Mambet Kamolovich, shu ishni senga topshiraman. Mushkul bo'lsa ham, lekin sen eplaysan.

Ular xayrashib, uylariga tarqalishdi.

Piyonista

Mambet ertalab medekspertiza, krimenalistlarning xulosalarini oldi. Jinoyatchi oyog'ida rezina oyoq kiyim, qo'lida rizina qo'lqop bilan kelgan. Hech joyda iz qoldirmagan. Faqat Joldas, o'lgan kishi, yana kimningdir u yer-bu yeridan barmoq izlari topildi.

Tez tibbiy yordam bo'limiga borib, shifokordan Joldasning ahvolini so'radi.

Yomon emas, dedi do'xtir, yuz aralash tekkan unchalik ziyon yetkazmabdi. Bir haftalarda tuzalib qolar.

Mambet Joldas bilan gaplashishga shoshildi. U bilan o'zi kimligi, qarindoshlari, yor-do'stlari, kimlar bilan aloqalari borligi to'g'risida bafurja surishtirib gaplashdi. Yaxshi gapirib, undan biroz ma'lumotlar oldi.

Joldas Madreymov yosh paytida juda bilimdon, savodli bo'lib, ko'pchilikka erta tanilgan. Tarixiy mavzuda nomzodlik dissertatsiyasini yoqlash maqsadida Toshkentda aspiranturada o'qigan. Nomzodlik ishini yozib tugatgan. Ilmiy idorada ishlagan. Ammo, nomzodlikni yoqlash oldidan ilmiy jamoatchilik fikrini to'plash chog'ida ishlari yurishmay qolgan. Chunki, o'shanda ishongan tog'i ilmiy rahbari vafot etgan. Ammo o'zi ham biroz takabbur, manmanlikdan xoli emas ekan. Maqtovlarni ko'tara olmay qolgan. Nojo'ya hulq-atvori bilan ilmiy jamoatchilikda noxush fikr uyg'otgan. Ayollarga ham suyagi yo'q ekan. Hamrohlari ham bora-bora piyonistalardan iborat bo'lavergan. Xotini ham bularga chidamay bir bolasi bilan undan ajrashgan. Keyin bir-ikki marta uylangan, biroq keyingi xotinlari undan bezib, tashlab ketishibdi. Qarindosh-urug'lari ham undan qo'llarini yuvib, qo'litiqqa urishibdi. Endigi hamrohlari ko'chabezori, ichkilikka mukkasidan ketganlar toifasidan. Ular ham Joldasning uyidan foydalanishadi. Axir, ichib to'ygach, uqlashga ham birorta boshpuna kerak-ku. Joldas ham ichmasa turolmaydigan bo'lib qolgan, aroq uchun har baloga tayyor. Ammo, taajjub, gohida u-bu narsa yozib ham turar ekan. Kurs ishi, referat yozib berib ham aroqqa pul ishlab toparkan. Ba'zan kutubxonalarga ham borishni kanda qilmas ekan.

Jaldas Madreymov kim hujum qilganini ayta olmadidi. O'sha kuni kunduzi Joldasga bir yigit yo'liqib, вЂњBoshing og'rib turibdimi, tushunaman. Ma mana buni olda, xumoringni yozib olвЂќ deb, pul beribdi. Kimligini nimaga bunday qilayotganini so'raguncha yigit ketib qolibdi. Birorta tanishim, yo qarindoshimdir, mayli, bizga bizga ichishga pul topilsa bo'ldi-da, deb Joldas shu kuni to'rt shisha qo'l bola aroq, non, konserva olib uyiga jo'nabdi. Eshigi oldida shishadosh jo'rasi Berdiyorga yo'liqibdi. Eshikni ichkaridan qulflab, ikkovi torta boshlaydi. Keyin choy ichgani va zarba yeganini chala-chulpa xotiralaydi. Chanqab, suv izlab qo'li bilan paypaslayotganida zarba yeydi. Va hushini yo'qtadi. Shifoxonada ertalab o'ziga keladi. Hech nimani bilmaydi. Ko'chada kaltaklanaverib ko'nikkan chog'i, kim urganiga qiziqib ham ko'rmaydi. Ammo, sherigi Berdiyorming o'lganini eshitib, cho'chib ketdi. Unga achindimi, yo o'zini ayblashlaridan qo'rqedimi, rangi bo'zarib:

Kim o'ldirdi? deya oldi xolos.

Shuni sendan so'ramoqchimiz. Janjallahgan edinglarmi?

Yo'g'-ey. Voy bechora. Men hech narsani bilmayman, o'rtoq tergovchi. Qattiq mast edik. O'zi ikki-uch piyola ichsak, tamommiz. Biz o'sha kuni ikkovimiz to'rt shisha ichganmiz. Berdiyorni nima bilan o'ldiribdi? Yo otishibdimi?

Seni urgan temir bilan boshi majaqlangan dedim-ku!

Yovuzlar-ey necha kishi ekan?

Noma'lum. Fikrimizcha yolg'iz odam bo'lsa kerak. Tag'in kim biladi? Hoy sen meni so'roq qila boshlading-ku? Hay mayli, hozir suhabatimizni tugatamiz. Biroq sen hozir men bilan borib uyingni ko'zdan o'tkazishing zarur. Balki nimalardir yo'qolgandir.

Seyfing ochiq qolgan. Qimmatbaho narsang bormidi?

Yo'q. Menda nima bo'lardi. Barini sotib ichganman

Sen kiyin. Men shifokordan ruxsat olaman. Qolganini voqeа joyida gaplashamiz.

Ular militsiya xodimi kuzatuvida jinoyat sodir bo'lgan uyg'a kirishdi. Joldas eshikdagи sim temirdan yasalgan ilgichning qiyshayib turganini ko'rib, вЂњBerdiyor bilan uyg'a kirkach, ilgichni ilgan edik. Qolganini gapirib borganmanвЂќ dedi.

Joldas seyf tomon yugurib borganini bilmay qoldi. Seyfdagi qog'ozlarni, delolarni axtarib, titkilay boshladi. Ancha o'tirdi. Nimanidir yo'qotganday qog'ozlarni yana titkiladi.

Birorta qog'ozing yo'qmi? so'radi Mambet. Xayollari bo'lingan Joldas yalt etib qarab:

Nima? dedi.

Biror narsangi yo'qotdingmi deyman?...

Yo'q-yo'q. Hammasi joyida.

Seyf o'rnidan qo'zg'atilganmi?

Ha. Ko'p vaqtan beri mana bu burchakda turardi. Chamasi, seyfda qimmatbaho narsa bor, deb ko'tarib ketmoqchi bo'lgan. Ular izma-iz gazxonaga kirishdi. Gaz plitasi ichida kalit yotibdi. Uni Mambet topdi.

Bu kalit qayerniki? Nega bu yerdan yotibdi?

Qani? U kalitni ikki barmog'in suqib tortib oldi. Axir bu seyfning kalit-ku! Kecha rosa qidirib, topolmagan edik.

Qachon yo'qotgan eding?

Kecha. Ichib o'tirganimizda pichoqni topolmagandik. Izlashga erinib, aroqning qopqog'ini shu kalit bilan ochgan edik. Uchinchi shishaga kelganda gaz plitasiga tushurganman. Plita o'chog'ining ichiga qarash kimning xayoliga kelibdi uni ham yo'qotdik. Chamasi, choy qo'ygani borganda deysiz.

### Yuzi Tanish Odam

Mabetning boshi qotdi: вЂњBerdiyorni Joldasning o'zi o'ldirmagan bo'lsa kerak. Shunday bo'lganida kiyimlari qonga belanardi. Joldasning odam o'ldirgudek siyogi' yo'q. Qattiq mast bo'lgan. Ikkalasi birga ichgan. Bundan tashqari Berdiyor Joldasdan kuchsiz emas. Aksincha, quvvatliroq, gavdali ko'rindi.

Unda kim, nega o'ldirgan? Qo'shnillardan surishtirish lozim. Balki biror nimaning xabari topilarвЂќ.

O'sha kuni hamma ishdan kelar paytda Joldasning devordosh qo'shniisiga uchrashdi. Yoshi o'tizlarda bo'lgan yigit xotini, bolalar bilan uyida yekan:

Kelish sababini aytgach, qo'shni xotin:

Bizga ziyni tegmaydimi? deb so'radi.

So'z beraman. Rost gapni aystsangiz o'zim sizlarni himoya qilaman.

Ha, bu voqeа haqida 02 ga qo'ng'iroq qilgan ham bizlarmiz, deya gap boshladi Guloy kelinchak, Joldasning eshigi qattiq qoqilib ochildi. Qo'shnimiz yana mastdir, shishadoshlari eshigini qoqayotgandir, deya havfsiramadik. Qotillik yuz beradi, deb o'ylamadik. Axir, bu uyda janjal-to'polon deyarli har kuni sodir bo'ladi. Saldan keyin eshigi yana ochilib-yopildi.

Taqillagan ovoz eshtila boshladi. Nimanidir temir bilan qo'parayotgandek go'yo. Gaz plitasini sotmoqchimi, uni sotib ichsa ovqatini qanday pishiradi, deya taajjublandik. Bir payt erkak kishining jon holatda chinqirgan tovushi ikki marta eshitildi-da, yana jim-jit bo'ldi. Nimadandir yuragim bezovtalandi. Erimga borib habar olib kel, desam: вЂњHe, o'shani, kundagi gap-da, borsam menga ham aroq ichiradi. Keyin men ham bir shisha olib berishim kerak. O'shalalar bilan tentirab yuramanmi?вЂќ deb bormadi. Unda o'zim borib ko'raman, sen ham qarab tur deb qo'shniimning eshigini ochdim.

Burchakda turadigan seyf o'rtada, yuzi tanish odam undagi qog'ozlarni titkilamoqqla. Divanda Joldas og'a, polga yana bir kishi chizilib yotibdi. Boshi qonga belangan. Ko'p qarab turolmadim, qo'rqib ketdim. Ko'rgan-bilganimiz shu, og'a.

Rahmat. Guloy, siz seyf qoshida turgan odamni taniysizmi?

Yo'q, yo'q.

Yuzi tanish edi dedingiz-ku. Qo'rqlay aytavering. Jinoyatchini tez ushlaganimiz yaxshi-ku!

Tanimayman. Biroq yuzi tanish edi. Mashhur artistmidi, yo'q, yozuvchi jurnalistmi? Xullas, lavozimi bor kishiga o'xshatdim. Televizorda ko'p ko'rardim uni chamamda. Yanglishmasam, o'sha odam bilim yurtiningmi, teatrningmi direktori bo'lib ishlagan edi. Hozir yanada ulkan ishga o'tgan. Ismi Mirza Toyirov bo'lسا kerak. Seyf oldida o'sha Toyirov turardi.

Yo'g'a, bu mumkin emas, deya taajjublandi tergovchi, turqini yana bir ko'z oldingizga keltiring. Siz aytayotgan odam hurmat-etibordagi kishi. Bunday jinoiy ishga qanday aloqasi bo'lishi mumkin? Buning ustiga piyonistada nima ishi bo'lishi mumkmn? Men bilmadim, dedi Guloy. Bilganingni ayt dedingiz, men aytdim. Bor gap shu!

Mayli sizga rahmat. Mirza Toyirovga o'xshagan kishi emasmikin, deb o'ylayapman-da.

Qaydam? Odam odamga o'hshaydi. Yo qo'rqlay ketib adashdimm, kim biladi deysiz.

Balki o'shadir. Dunyoda hamma narsa bo'lishi mumkin. Kimning ichida nima borligini bilib bo'ladimi? Sizga yana bir marta tashakkur, deya Mambet tashqariga yo'naldi.

Bir daqqa, Mambet og'a, deb tushguncha Jetker xotiniga yuzlandi. Aytganday, kuni qo'shni yo'lakdag'i Sog'indiq qo'shnimiz qorong'i mashinasini tuzatib o'tirdi-ku!

Ha-ha. U ham qo'shning uyiga kirib chiqqan odamni ko'rgan bo'lishi mumkin. So'rab ko'ring, deb Guloy Sog'indiqni uyini ko'rsatib qo'ydi.

Sog'indiq uyida ekan. U ham dastavval hech kimni ko'rmadim, deb qo'rslik qildi.

Yaxshi, unda hech kimni ko'rmaganligingni yozma turda yozib ber. Men xujjat qilib tikib qo'yaman. Ammo keyinchalik o'sha odamni ko'rganing ma'lum bo'lib qolsa, jinoyatchini yashirishga uringaning uchun javob berasan. Axir, sen kechqurun 8.30-9.00lar orasida o'sha yo'lakka kirib chiqqanlarni ko'rmasliging mumkin emas. Chunki, sen mashinangni ta'mirlab o'tirgansan.

To'g'ri, boshim baloga qoladimi, deb qo'rqlaman-da.

Aytmasang, qaytanga yomon bo'ladi.

Men o'sha bir notanish odamning yo'lakka ikki marta kirib chiqqanini ko'rdim.

U kim ekan? sabrsizlik bilan so'radi Mambet.

U Mirza Toyirov degan olim.

Qaysi Mirza Toyirov. Mashhur ziyoli Mirza Toyirovni yoki yana bir Toyirov degan kishimi? deya aniqlik kiritish uchun so'radi Mambet.

O'sha direktor Toyirov-da. Bundan uch yil ilgari uni yaqindan taniganman. O'shanda u nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Men avtokorxonada haydovchi edim. Tagimda yap-yangi вЂњOta yo'lb Ьк avtobusi. Boshlig'imizdan meni so'rab olibdi. Bola-chaqasiga va boshqa bordi-keldilariga xizmat qildim. O'shanda xizmatda yurgan boshqa haydovchilar bilan so'zlashib qolib, bu odamni taniganman. Boshini og'ritib nega kerak ekan bu kandidatlilik deganmiz. Ba'zi haydovchilar, juda kerak-da, juda bo'limganda biror korxonaga boshliq bo'ladi deyishgandi. Rostdan ham shundan so'ng vazir o'rinosbosarligiga ko'tarildi. Kelgusida vazir bo'larmish, degan gaplar yurardi.

Tergovchi Sog'indiqning gapini jim tingladi. Ko'p ma'lumotlarga ega bo'ldi. Sog'indiqdan Toyirov bilan yuzma-yuz gaplashib ko'rningmi, deb so'radi.

Yo'q. O'sha qotillik yuz bergen kuni u men bilan boshini silkitib salomlashdi, xolos. Bu uyda nochor kun ko'ruchilar yashashadi. Mirza Toyirov obro'li odam. Shuning uchun bunday uyg'a kirganini hech kim bilmasligini xohlagandir. Bu yerda uning tanishi yo'q-ku, nega kedi ekan, deb o'ylagandim.

Mambet tasavvurida nimadir oydinlashgandek bo'ldi. Biroq qilmishni jinoyatchining bo'yniga qo'yish juda mushkul. Balki barchasi teskari bo'lqidir? Ya'ni, jinoyatga mana shu qo'shnilarning o'zlari aloqadormi? Jinoyat olamida oq degan qora, qora degan qoq bo'lib chiqadigan holatlar ko'p bo'ladi.

### Dastlabki Tergov

Shunday obro'li odam qandaydir bir piyonistani uyiga kirib o'g'rilik qilibdi, degan gapga ishonish qiyin. Biroq hayotda nelar bo'lmaydi deysiz. Guvohlar ko'rsatmasi bo'yicha Toyirovni tergov qilmaslikning ham iloji yo'q, boshqa gumondor xabari chiqmayapti.

Tergovchi Mambet Toyirovga qo'ng'iroq qildi. Bir jinoyat bo'yicha bir-ikkita savollari borligini, idoraga kelib ketishini iltimos qildi.

Organni hurmat qilmasak bo'lmaydi. Albatta boraman, - dedi Toyirov xotirjam.

Idorada hol-ahvol so'rashishgach, maqsadni bayon etdi. To'g'ri javob berishi lozimligini uqtirib, tergovchi yettinchi oktabrCH kuni qayerda bo'lganligi to'g'risida so'radi.

Uyda. Yangangning yonida.

Yaxshilab o'ylang. Yanglishmayapsizmi? Toyirov qo'lini peshonasiga qo'yib, biroz o'ylandi-da, so'ngra dedi:

Ishdan ertaroq keldim. Dam oib yotdim. Tinchlikmi o'zi? Nega tergov qilyapsiz?

Qotillik yuz bergen. Savollarga to'g'ri javob berishingiz kerak.

Bu qanday gap? Hukumat odamining obro'sini to'kayapsizmi? Toyirov achchiqlandi.

Qonun oldida hamma teng, Mirza Toyirovich. O'zingiz yaxshi bilasiz. Qonunni avvalo siz, rahbarlar, hurmat qilmasangiz boshqalar ne qilmaydi? Shuning uchun jahl qilmay savollarimga javob bering.

Kechirasiz. Qizishibman, deya u birdaniga jiddiy tortdi. Bu yerga gumondor sifatida kelganimni hech kim bilmasin, uyat bo'ladi-ya. Tushimga kirmagan narsalar. Astag'furillo!

U yoqasiga tupurdii.

Mirza Toyirovich, mushuk-sichqon o'yinini bas qilaylik. Mambet Kamolov gapni cho'rt kesdi. To'g'risini aytin, siz o'sha kuni kechqurun soat sakkiz yarim to'qqizlarda boshqa joyda bo'lgansiz. Iqrormisiz?

Toyirov tergovchi ba'zi narsalardan xabari borligini, to'g'risini aytmaslikning foydasi yo'qligini bildi.

Endi inim, aytganingiz to'g'ri. Dastlab aytishga uyaldim.

Nimaga uyalasiz?

Yigitchilik-da, uka, ora-sira charchoqni yozib olmasang bo'lmaydi. Bir ayol bilan ko'ngilxushlik qildim.

Soot nechada? Qayerda?

Bilasiz-ku, inim.

Xizmatchilik. Har bir so'zning o'z og'zingizdan eshitishim zarur.

Olti-sakkizlar chamasida. Yigirma... kichik tumanda.

To'qqizlardamasmi?

Yo'q. Sakkizlarda ketdim. Chunki, bunday paytda xotin yodga tushadi. Beixtiyor soatga qaraysan, ne vaj ko'rsatishni o'ylaysan.

Voy ukam-ay, sirniyam fosh qildirding-ku! Bu gaplar oramizda qolsin, xo'pmi?

Yaxshi. Biroq sizni sakkiz yarim-to'qqizlarda boshqa joyda ko'rishgan. Kim ko'ribdi? Meni ko'rib, darhol soatiga qarashibdimi?

Odamlarga ham hayronsan.

O'sha o'ttiz to'qqizinchı uyga bordingiz, keyin-chi?

Uy raqamiga qarabmanmi? Axlat tashlanadigan joyning to'g'risidagi uy-ku.

Nechanchi yo'lakda, nechanchi qavatda bo'ldingiz?

Birinchi yo'lak, ikkinchi qavat. O'ng tomondagi xona bo'lsa kerak.

Ayolning ismi? O'sha xonada turadimi?

Ha. O'sha xonada. Ismi Sanam.

Hozircha yetarli. Biror narsalarni aniqlab yana chaqiraman. Bergan javoblarining to'g'riliqiga imzo cheking.

Tojirov so'rovnoma maga imzo chekdi.

O'ynash

Mambet o'ttiz to'qqizinchı uyga Jetkerni chaqirdi. ВЂњJinoyat ochilguncha har kim bilavermasin, o'zing baridan xabardorsan, deb seni chaqirdimbЂќ, dedi unga. So'ngra:

Pod'ezdingizda Sanam degan suyuqyoq xotin yashaydimi? deb so'radi.

Yo'q unday xotin yashamaydi.

Tergovchi Sanamning ish joyidan o'ziga bildirmasdan suratini oldirgan edi.

Mana bu Sanam. U siz yashaydigan uydagi kimlargadir qarindosh emasmi? Kelib turardimi? Yaxshilab qara-chi...

Yo'q bu ayolni ilgari ko'rmaganman. Ko'pdan beri o'sha manzilda yashayman. Kimning qanday qarindoshi bor, kimga kim keladi barini yaxshi bilaman.

Ikkinci qavat o'ng tarafagini xonada kim turadi?

Unda qari rus kampir-chol.

Ular uyini yomon xotinlarga ijara berib qo'yamaydimi?

Hech ham. To'g'ri so'zli, tuzuk odamlar. Bu gap-so'zni eshitib qolsa, bizni haqorat qilding deb, janjal ko'tarmasa yaxshi edi hali.

Mambet kecha Toyirovning yolg'on gapi rayotganini sezgan edi. Ammo isbotsiz bunga e'tiroz bildirish mumkin emas. Shuning uchun bugungi ishlarni aniqlab olib, so'ngra u bilan gaplashadi.

Kechqurun Toyirovni yana xonasiga chaqirdi.

Toyirov kelgach, diydiyosini boshladi:

Hoy, inim, nega chaqiraverasan? Qayerdanam o'sha ayol bilan uchrashdim... burnimdan chiqarding-ku! Eri yo'q xotin u.

Qaytangga savob bo'ladi deyishadi-ku!

Xizmatchilik. Savollarimga to'g'ri javob bersangiz vaqtinigini olmayman.

Mayli, iloj qancha.

Bugun men kecha siz aytgan ma'lumotlarni tekshirdim. Birortasi ham tasdiqlanmadidi. U yerda Sanam degan ayol yashamas ekan.

Balki, yashamas ham, deb Toyirov talmovsiradi. Men bu bilan hech ham uyida uchrashmaganman. Saunaga, yozda ko'lga, tabiat qo'yniga borardik. O'shanda uning uyi deb o'ylaganman. Sakkizinchı kichik tumanda ota-onasining uyida turadi ba'zida.

Gapni opqochmang. Siz u yerda umuman Sanam bilan bo'limgansiz. Iqror bo'lavering.

Nega, bo'ldim! yon bermadi Toyirov.

Siz aytgan yerda rus kampir-chol yashashadi. Ular sizlarni uyiga kiritadigan odamlarmas. Yo hozir birga ularnikiga borib yuzlashtiraman.

Inim, adashgan bo'lismum mumkin. Uchinchi qavatning o'ng tarafimi, chap tarafimi, ishdan horib chiqqan odamning esida qoladimi? Mambet ukam, gapning bo'ladi ganini gapi raylik-da.

Nima demoqchisiz?

Men, inim, avvaldan seni bilaman. To'y-ma'rakalarda uchrashib yuribman. Men o'zimga yarasha obro'ga egaman bu gaplar ko'chaga chiqib ketsa, menga yaxshi bo'lmaydi. Sen yordam ber. Xizmatdan qochmayman. So'raganining beraman. Qutqarsang bo'ldi. Iltimos!

Nima bermoqchisiz? deb Mambet o'zini bilmaslikka soldi.

Pul-da. Dollar beraman, xohlasang. Besh yuzmi, mingmi, og'zingga siqqanini so'ra. Pul ketsa-da, obro' ketmasin.

Mambet bosh chayqadi.

Yo'q, bunaqasi ketmaydi, gapni cho'rt kesdi.

Shunda Toyirov bugun ishi juda ko'payganini, hozir boshi qattiq og'riyotganini, borib dam olmasa bo'lmasligini aytadi. Mambet Toyirovdan Sanamning uy manzilini yozib oldi. So'ng вЂњishbЂќning ba'zi hujjatlarini to'lirdi. Bir payt nimadir esiga tushib, darrov kiyindi-da, mashinasiga o'tirdi.

U baribir kechikibdi: yetib borganida Toyirov Sanamning yonidan chiqib kelayotgan edi. Tergovchini ko'rib shoshib qoldi.

Mazam yo'q degan edingiz-ku, Mirza Toyirovich! deb Mambet qistovga oldi.

Sanam oz-moz puldan yordam ber, degan edi. Shunga kelgandim. O'zingiz nima qilyapsiz bu yerda?

вЂњIssiqвЂќ joyni manzilini olgach, o'tirolmadim.

Sanam eshikni qo'ng'iroq bosilgach, darrov ochdi. Ehtimol, Toyirov qaytib keldi, deb o'ylagandir. Axir hozir odamlar tunda tugul, kunduz eshigini ochmaydi. Yetti bobongacha surishtirgach, keyin ochadi.

Sanam bo'sag'ada boshqa odamni ko'rib qo'rqiб ketdi. Saldan keyin kulimsirab kiring dedi.

4 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

Mambet uni darrov so'roqqa tutdi:

Mirza Toyirovni izlab yuribman.

Qaydam tanimayman.

Nimaga tanimaysan? Birga yotib-turib...

Ha-a. Umuman taniyman-kuya. Ammo ko'rmadim.

Kelmadimi?

Kelmadidi. Besh-olti kun ilgari ko'chada ko'ruvdim.

Nega yolg'on gapirasan? Hozirgina yoningdan chiqdi-ku?

Ay, qaynim-ay, Sanam uyalganidan barmog'i og'ziga tekkizib nozvana boshladi. Yelkasidagi yupqa xalatni sekin tortib yechdi.

Faqat ichki kiyimda qolgan bu nozanin shunday go'zal ediki... oppoq badan...

Bunday paytda vaqt boy berish yaramaydi, qaynim, ko'z tegadi. Qani kelng. Pochchangiz shoshib kelib, shoshib ketdi. Hovrimni bosolmay qoldim. O'zing bilan hordiq chiqaraylik endi. O'zidan ko'rsin pochchang, qani mehmonim bo'ling.

Sanam Mambetni quchoqlab, yuzidan o'pmoqchi edi, Mambet o'zini olib qochdi.

Boshqa safar, dedi Mambet va guvohnomasini ko'rsatib: Sizga bir necha savollarim bor.

Juvon xalatini darrov kiyib oldi. Kresloga o'tirdi. Oppoq sonlarini ko'rsatib, oyoqlarini bir-biriga chalishtirdi. Ko'kraklarini kerib, ko'z-ko'z qildi.

Bu uyda kim bilan yashaysiz?

Bitta o'zim. O'shaning uchun aytayapman-da, hech kim yo'q. Bizga bu yerda hech kim halaqt bermaydi.

Sanam, bu gapni qo'yib turing. Mening savollarimga tez-tez javob bering.

Mayli, so'rang.

Ota-onangiz qayerda?

Qishloqda.

Qishloqda yashashadimi yoki mehmonga ketishganmi?

Sanam o'ylanib qoldi. Toyirovdan buni so'ramagan edi.

O'sha yoqda yashashadi. Nimaydi? deya qarshi savol qo'ydi Sanam.

Bitta o'zing turadigan bo'lsang, mijoz yubormoqchi edim.

Bo'pti yuboraver, bizda вЂњotkazвЂќ yo'q.

Yetinchi oktabr kuni qayerda bo'lding?

Kechqurunmi? Mirza Toyirov bilan o'ttiz to'qqizinchı uyda.

Soat nechada?

Olti bilan sakvizlar oralig'ida.

Kimning uyida?

O'ris chol-kampirning uyida. Haqini to'ladi.

Aldama. U yerda bo'limgansizlar. Yuzlashtiraymi?

Qaynim, ishq siri nozik masala. Ikki odam orasida qoladigan gap. Xullas pochchang bilan o'sha yerda bo'ldim. Nima qilganimizni ham aytaymi?

Yolg'on ko'rsatma uchun qonun oldida javob berasiz, Sanam.

Qonunni men ham yaxshi bilaman.

Mambet u bilan adi-badi aytishib o'tirishni o'ziga ep ko'rmadi. Qog'ozga yozganlariga qo'l qo'ydirdi-da, bu yerdan chiqdi.

### Qarg'ish Olgan Kimsa

Ertasiga Joldasni borib ko'rayin, deb kasalxonaga borsa, u ketib qolgan ekan. вЂњUch kun ham yotmadi, dedi shifokor, ketib qoldi. Ertalab kelib yarasini tozalatib ketdi. Yana ichib olgan...вЂќ

Endi qayerdan topsam ekan uni? deya o'ylandi Mambet.

Men sizni kelishingizni aytdim. Qayerda bo'lsan, tergovchi izlab qolishi mumkin dedim. U bo'lsa qayerda bo'lardim uyda-da, yo bo'lmasa temir bozorda, dedi. Bir tanishi mashinasining radiatorini sotmoqchi ekanmi mana bunga, deya shifokor tomog'ini chertdi.

Mambet Joldasning uyiga bordi. U yo'q ekan. Keyin bozorning eski temir-tersak sotiladigan tomoniga yurdi. Darrov topdi. Bitta piyonista jo'rasi bilan radiatorga boqib o'tirishibdi.

Yur men bilan, dedi Mambet, kafeda o'tirib gaplashib olamiz.

Kafe daragini eshitib Joldas ochildi. Jo'rasiga bir nimalar dedi-da, Mambetning ortidan ergashdi.

Mambet chetroqda joylashgan kafeni tanladi. Ovqat, yuz grammidan aroq buyurdi. вЂњSog'liq uchunвЂќ deya otib olishdi va ovqat yeya boshlashdi. Joldas kayf aralash undan-bundan gap topib so'zlay boshladi.

Boshqasini qo'ya turaylik. Bir narsani ayt, Mambet Joldasni yana ichkisi kelayotganini payqab, afitsiantkaga yana aroq keltirishni buyurdi. Nega militsiyaga bosqinchilik bo'lgani, aybdorni topib berish haqida ariza bermayapsan?

Topganda nima o'zgaradi. Bo'lganim shu mening...

Unday dema. Jinoyatchi qo'lga olinmasa, u yana jinoyat sodir qilishi mumkin.

O'limdan qo'rqlmayman. Qaytanga shunday qilsa yaxshi bo'lardi. Tirik yurganimda nimani qoyillatdim. Qaytib kelishdan xavotirlanmayman. O'g'irlatadigan hech narsam ham yo'q.

Baribir, jinoyatchi nega sening uyingga bostirib kirganini, biror narsa o'g'irlamoqchi yo sizlarni o'ldirmoqchi bo'lganini bilishga qiziqmayabsanmi? Seni o'ldirmoqchi bo'lди, do'stingni esa o'ldirdi. Hech bo'lmasa uning ruhi uchun jinoyatchini jazolash kerak emasmi?

Menga bari bir. Men bir yurgan tirik murdaman.

Unday dema. Xudo xohlasa ishing o'ngidan kelib, yaxshi bo'lib ketasan hali.

Ishonmayman, ko'p ayollarni xo'rладим, qarg'ish urgan meni.

Mayli, senga kerak bo'lmasa, mana bizga kerak jinoyatchining jazolanishi. Buni shunday tashlab qo'yaymiz. Joldas, jinoyatchi nega sening uyingga kirgan? Adishib kirmagani aniq.

Joldas boshi bilan ma'qulladi. Yaana ichkisi kelganini bildirib, stakanga ishora qildi. Yana otib olishdi.

O'g'irlik uchun kirgan deyishniyam bilmayman. Yoki dushmaning bormi?

Menda dushman nima qilsin? Jo'ramni o'ldirib, o'zimni urib ketsa-da, uni kechirayapman-ku! Oldin ham qancha do'pposlanganman. Hech biriga kek saqlamadim. Ilgarigi qaysarligimdan hozir asar ham yo'q. Azaldan shunday bo'lganimda bunchalik xo'rланmasmidim balki, u shunday deya yig'lab yubordi.

Mambet, u yig'lab bo'lgach, yana so'roqqa tutdi.

Unda o'g'irlilikka kirgan. Shunday desak to'g'ri bo'ladimi?

Nimani o'g'irlaydi? Siniq piyolanimi?

To'xta, o'g'irlilik uchun kirgani aniq. Seyfni olib ketmoqchi bo'lган. Seyfda esa unga qadrli nimadir bo'lган, to'g'rimi?

Yo'q, inkor etdi Joldas. Menda qadrli narsa nima qiladi? Allaqachon ichib yo'q qilardim!

Unda nega o'g'irlilikka tushgan?

O'rtoq tergovchi, jinoyatchi menimcha xayoli parishon birov bo'lsa kerak, mening uyim birinchi qavatda bo'lGANI uchun to'g'ri kiravergan.

Yo'q. U jinni odamga o'xshamaydi. Hech qayerda barmoq izini qoldirmagan. Jinoyat qurolini ham o'zi bilan olib ketgan.

To'g'risini ayt seyfda nima bor edi?

Hech nima.

Nimadir bo'lган.

Unda nima ekan u? deya qarshi savol berdi Joldas.

U narsa oltin emas, pul emas, qimmatbaho yo meros narsayam emas. Hujjat bo'lsa kerak. Uy hujjatimi, suratmi, yoki qo'lyozmami?

Topmadingiz. Mening qog'ozlarim seyfda but edi. Qimmatbaho nima bor, deb ohib ko'rgan-da!

Bo'yningga ol, deb Mambet Joldasning ko'ziga tikildi. Negadir sen jinoyatchini yashiryapsan?

Nimalar deyapsan? Menga shuncha zarar keltirgan kimsani nega yashiray? O'ylab gapir...

Bo'lmasa yashirmay ayt. O'sha jinoyat sodir bo'lган kuni sen seyfni uzoq titkilading, men kuzatib turdim. Biroq kerakli narsangni toplmading. Sezdimki, sen o'sha izlagan narsangni kim organini o'shandayoq bilganding.

Gumon iymondan ayiradi, o'rtoq tergovchi, xayol boshqa, haqiqat boshqa.

Mayli, aytmay qo'yaqol, o'zim topaman. Ammo unda sen jinoyatchini yashirganing uchun javob berasan.

Ko'rarmiz, deb kulimsiradi Joldas.

Ha tez orada topman.

Unda yana yuz gramm otaylik.

Senga ko'plik qilmaydim? Ovqatingni ham uncha yemading.

Ovqat yemayman. Piyonistalar ovqat yeyishmaydi. Bilmaysizmi?

Uni sen bilasan. Menga qara, Mirza To'rayev bilan qanday aloqang bor?

Joldas homuza tortdi, so'ngra yo'taldi. Mambet barini kuzatib turib, javob topish uchun qilinayotgan harakat deb tushundi.

Nega so'rayapsan?

Jinoyatga aloqasi borligi uchun?

Nima, meni mast, ne so'rasam aytaveradi deb o'layapsizmi? Mayli aytqaqolay, Toyirov bilan hech qanday aloqam yo'q. Faqat uni sirtidan taniyman. Fan nomzodi. Katta odam. O'zim tarix bilan ilgari shug'ullanganim uchun uni hurmat qilaman.

Shu yerda Mambet bunday bemanı suhabatning hech keragi yo'q ekanligini, agar Joldas Toyirov bilan aloqasi bor bo'lsa, bu yerdagı gaplarni yetkazishini eslab gapni to'xtatdi.

Qaytayotib Mambet Joldasning jinoyatchini bilishi aniqligiga yana bir bor ishonganday bo'ldi. Shuning uchun Joldasning ortidan poyoqchi qo'yishni ma'qul topdi.

### ВЂњOrganga Ishing TushmasinвЂќ

ВЂњToyirov bilan Madreyimovning qanday aloqalari borligini bilsak jinoyat tugunini yechish mumkinвЂќ

Shu o'y bilan Mambet ertalab Toyirovga qo'ng'iroq qilgandi, вЂњborolmayman, tumanga ketyapman, ministr ruxsat bermaydiвЂќ deb javob berdi.

Gaplashamiz ruxsat beradi, dedi Mambet ham gapdan qolmay, chaqiruv qog'ozi yuboraman. Yubormaganini ko'ramiz shunda.

Haliyam men hech kim bilmisin, chaqiruv qog'ozi yubormay, telefonda ishdan so'ng chaqiray deb yuruvdim.

Yo'q, sizga rahmat, inim. Axir meni jinoyatga hech bir aloqam yo'q-ku. Endi chaqirsangiz ustingizdan arz qilaman. Obro' ketsa-ketsin!

O'zingiz bilasiz. Ammo bugun kechqurun soat oltida sizni xonamda kutaman. Kelmasangiz sizni militsiya bilan keltiraman.

Unchalikka bormassiz, deb o'layaman, deb Mambet go'shakni joyiga qo'ysi.

Yarim soatlardan keyin Ayap Abdambetovich qo'ng'iroq qildi.

Mambet Kamolovich, qattiq ketmayapsizmi?

Nima gap, tushunmadim?

Mirza Toyirovich masalasi bo'yicha aytayapman. Hozirgina qo'ng'iroq qilib sizdan o'pkaladi. Tinch ishlashga qo'y mayapti dedi.

Buning uchun oldin o'zi tinch yursin edi, dedi Mambet kulib.

Mambet, siz asossiz narsalarga tayanib, uni katta jinoyatga aloqador qilmoqchi ekansiz. Katta mablag' talab qilmoqchi ekansiz, aytishicha.

O'zi allaqachon pora taklif qildi. Olmadim.

Undan ham ko'p so'ramoqchi deyapti. Ayolga borganim rost, o'sha kuni, o'sha uyda jinoyat yuz bersa men bo'laveramanmi deyapti. Dalil-isbot yo'q, har kuni bir gap. Yuqoriga arz qilaman deyapti.

Arz qilaver demadingizmi?

Mambet Kamolovich, chegaradan chiqib ketmang. Arzimas narsaga chaqiravermay qo'yaqoling. Katta oqsoqol. Hurmat qilishimiz kerak. Buning ustiga menga qudachiligi bor.

Nima deysiz unda jinoyatni yopamizmi, Ayap Abdambetovich?

Men unday demayman. Ishni ochasiz.

Unda Toyirovni tinch qo'ya olmayman, kechirasiz.

Ertaga aybsiz bo'lib chiqsa, o'zingizga zarari tegib yurmasin deyman-da, men sizga ishonaman. Shundayam yetti o'lchab, bir kesish kerak.

Xo'p bo'ladi, Ayap Abdambetovich. Tergovchi nomiga gard yuqtirmayman.

Zafarlar yor bo'lsin!

Rahmat, sizga ham! Mambet go'shakni qo'yari ekan, Ayap Abdambetovichning o'zini tushunganidan xursand bo'ldi. Ko'nglini ko'taradigan gaplaridan quvondi. Nima, ishni yopib tashla deyishi ham mumkin edi-ku!

Tergovchi Mirzani kelarmikin, kelmasmikin, deb o'ylandi. Buning ustiga prokurorning yetti o'lchab, bir kes degani ham hayolidan ketmayapti. **в Ўзбекстан** ham Mirza haqida gumonlarim xato chiqsa, nima bo'ladi. Haqiqatan ham shu kuni o'sha yo'lakda o'ynashi bilan bo'lgan bo'lsa nima qilaman? Unda jinoyatchi kim? Joldasning aytganida jon bormi? Jinni odam bo'lsa, barmoq izlari qolmasmadi? Jinoyatni qilgach, qochib ketishiga aqli yetadimi jinnining?

Balki, Guloy-Jetkerlarning qilmishimikan? Meni chalgi'tish uchun yolg'on ko'rsatma berishdimikan? Sog'indiq bilan ham tili bir bo'lishi mumkin. Tashqari eshikdagi barmoq izi ham Guloyning ekanligini ekspertiza isbotladi. Unda Guloy nega odam o'ldiradi? Qo'shnising uyiga ega chiqmoqchi bo'lishganmi?

Mayli, shunday bo'laqolsin. Unda nega odam ishonmaydigan Mirza Toyirovga ayb yukladi? Nega jinoyatchini ko'rmasidik demagan yo boshqa odamni ko'rsatmagan?

Chunki o'sha kuni Mirza Toyirov chindan ham o'ynashi bilan pod'ezda bo'lidan. Shuning uchun ham Guloy uni ko'rsatayapti. Hatto uni jabrdiydaning uyida ko'rishgan bo'lsa, boshqa kimni tergash kerak? Chindan ham jinoyatchi Guloy bo'lib, Mirza Toyirovning dakkisini yeb yurmayin. Qattiq o'ylanib ishlashim kerak. Ayap Abdambetovich, tergovchi mening aytganimni qilmadi. Haq joyida qaror topar, chaqirsa boravering, degan bo'lsa kerak, kechqurun oltida Mirza Toyirov xonaga kirib keldi.

Mambetning xayoli bo'lindi.

Organga ishing tushmasin ekan, hazillashgan bo'ldi Toyirov.

Buni oldinroq o'yash kerak, hazilga hazil javob berdi Mambet, hush kelibsiz!

Mirza gapning indallosini anglagan bo'lsada, o'zicha rahmat deb qo'ydi.

Mambet har safar gumondor bilan gaplashganda har kimga har xil uslub qo'llab gaplashish zarurligini yaxshi biladi. Bo'lmasa, gap olish mushkul. Bu ham bir fan!

Hech narsani bo'yningizga olmayapsiz, Mirza Toyirov.

Nimani bo'yninga olishim kerak?

Sakkiz yarim to'qqizlarda sizni o'ttiz to'qqizinchi uy atrofida ko'rganlar bor. Goh o'ynashimni uyi dedingiz, goh boshqaning uyi, biz dam olishga kelgandik deysiz. Sanam ota-onasi bilan yashaydi degandingiz, bitta o'zi yasharkan. Nega Sanamni bitta o'zi yashashini yashirdingiz?

Mirza talmovsiradi. Ammo yana o'zini o'nglab oldi:

Ota-onasi kelib turadi.

Kelgani bilan uch-to'rt kunlab yotmas. Odamlarda hozir vaqt hisobli. Ko'p bo'lsa bir kun bo'lar.

Undan sado chiqmadi. Stoldagi qalamni aylantirib o'tiraverdi.

Joldas Madreyimovni tanisizmi?

Bu savolni kutgan bo'lsa kerak darrov javob berdi:

Yo'q, kim ekan u?

Ismini ham eshitmaganmisiz?

Yo'q, yo'q, kim bo'lib ishlaydi, qayerda turadi?

Shu shaharning odami. Ishlamaydi, piyonista.

Piyonistalarni tanimayman.

U ham tarixchi. Siz tanishingiz kerak.

Mirza Toyirov yolg'oni oshiraversa bilinib qolishi mumkinligini o'ylab, dedi:

Esim qursin. Yodimga tushdi. Joldas Medreyimov, ha, aspiranturani bitkazgan. Kasbdoshlar orasida aytilib qolardi. Biroq o'zim hech uchrashmaganman. To'g'risi, uning yo'li boshqa, meniki boshqa.

Tergovchi boshqa savol bermadi, baribir iqror bo'lmaydi. Joldas bilan uchrashish aniq. Ana o'shanda bo'yniga qo'yaman, deb xayolidan o'tkazdi Mambet.

### Shartlashuv

Mambet jinoyat ishiga bog'liq tushuntirish xati, dalolatnoma va boshqa hujjatlarni ko'zdan kechirmoqda. Jinoyat qanday yuz bergani haqida o'laydi.

Mirza Joldas qattiq mast bo'lidan paytni kutib, poylab yurgan. So'ng kechqurun soat sakkizlarda kelgan. Kalitni behush yotgan Joldasning kissasidan olaman-da, seyfdan kerak narsani o'marib ketaman, deb o'ylagan, lekin kalitni topolmagan. Shunda u seyfni ko'tarib ketmoqchi bo'ladi. Ammo bir o'zi eplolmasligini sezadi (Shu yerda jinoyatchi bitta odam ekanligi aniqlanadi). Uy ichida-ku sudrar, tashqarida qanday sudrab yuradi. Shunda seyfni buzib ochadigan temir izlab mashinasiga borib keladi (Buni Guloy ham tasdiqladi).

Kelib taqir-tuqur qilib seyfni ocha boshlaydi. Shovqindan Joldasning jo'rasini Berdiyor uyg'onadi. Shunda Toyirov guvohni gumdon qiladi. Seyfni ochadi. Qo'lida rezina qo'lqop bilan kerak narsasini izlaydi. Bir bog'lam delo tugunini qo'lqopsiz yechadi. Shundan barmoq izi qolgan. Shu payt Guloy eshikdan qaraydi. Toyirov shoshib qoladi. Militsiyaga xabar berishidan qo'rqb, tez-tez izlagan narsasini qidiradi. Shunda Joldasning uyg'onganini ko'rib, uni ham temir montirovka bilan uradi. Joldas hushidan ketadi. Uni o'ldi, deb o'ylagan va seyfdan izlaganini topgach qochadi. **в Ўзбекстан** ga xabar qilgan Guloy poylamaydi. Bor gap shu!

Sodir bo'lidan jinoyat tafsilotlari xususida fikrlab o'tirgan Mambetning uyali telefoni jiringladi. Poyloqchi ekan. U Joldasning qo'shnisi. Ilgaridan **в Ўзбекстан** xizmat qilib, choychaqa topib yuradi. Bu safar ham xizmat haqqi olish evaziga Joldasni poylab yurishga rozi bo'lidi.

Tashqarida o'tirsam, **в Ўзбекстан** uzozqroq joyga bitta qizil **в Ўзбекстан** kelib to'xtadi. Ko'p turdi. Birovni kutayotgani aniq edi. Bir payt pod'ezddan Joldas chiqqan edi, **в Ўзбекстан** signal berdi. Joldas yon-veriga qarab, mashinaga bordi.

Mashina egasi o'zi o'tirgan eshik oynasini tushurib bir nimalar dedi, Joldas mashinaga o'tirdi.

Poyloqchingapidan zerikkan Mambet uni shoshirdi:

Xo'sh endi qayerda ular?

вЂњNeksiyabЂќning ortidan taksi ushlab poylab bordim. Hozir ular avtovokzalagi вЂњKarvonвЂќ kafesida. Men ham shu yerdaman.

Seni sezishmadimi?

Yo'q tashqarida, daraxt panasidaman.

Hozir yetib boraman.

Mambet Kamolov вЂњTikovЂksini yeldek uchirib, yetib bordi. Poyloqchidan ularning eng chekkadagi вЂњkabinavЂда o'tirganini bilib: вЂњUlarning yonidagi вЂњkabinavЂка kiramiz mast odamlarday ovozimizni o'zgartirib gaplashib o'tiramiz. Sen ko'proq so'zlaysan. Men gap tinglashim kerakвЂќ, deb tushuntirdi.

Kafening ichi ikki qator qilib, eshik o'rnida doka bilan ajratilgan вЂњkabinavЂklardan iborat edi. Odam siyrak. To'rtta вЂњkabinavЂда odam bor, xolos.

Mambet ofitsiantkani imlab chaqirdi-da, guvohnomasini ko'rsatdi:

Mana buni ana u hujraga kirib, bildirmasdan stol ostiga yopishtirib chiqasan, agar u yerdagilarga bildirsang, jazoga tortilasan, deya unga diktofon berdi.

Ular ovqat, bir shisha aroq buyurtirishdi-da, poyloqchilikka kirishdi. Chamasi, Toyirov ular kimlar ekanligini bilmoqchi bo'ldi. so'ngra mastlarcha gap-so'zlarini eshitib, bexavotir yana gapga berildi.

Mambetning qulog'i ding bo'ldi. Ular asosiy masalaga endi kirishganga o'xshaydi.

Sening ishing ekanligini darrov bildim. Berdiyorni nega o'lording? Meni ham o'ldi deb o'ylagansan, dedi Joldas.

Vaziyat shuni taqazo qildi. Kalitni qayerga qo'yganding? Hech topolmadim, - dedi Toyirov.

Choy qo'yayotib gazo'choqning ustiga tushuribman.

Berdiyorni uyg'onib ketgani uchun o'ldirdim. Guvoh ortiqcha edi. Seni ham urdim. Endi bilingmi, mening qo'limdan har narsa keladi. Qadamingni o'ylab bos.

Meni qo'rqitolmaysan. O'limdan ham qo'rqlayman. Qo'lyozmani olisan-ku? Uni seyfdan topolmadim.

Qurib ketsin o'sha qo'lyozma. Ne savdolarga soldi meni. O'zing ham to'yording. Nusxasi ekan-ku? Asli qayerda?

Joldas mazza qilib kuldi.

Mirza Toyirovich, meni axmoq deb o'ylaganmiding? Asl nusxasi ishonchli joyda.

Nega tergovchiga men haqimda aytmading?

Sendan hali ko'p foydalamoqchiman. Aysam nima foya? Seni qamashsa, daromaddan ayrilaman-ku.

Sen meni shantaj qilishni qo'yamsanmi?

Shantajni endi ko'rasan. To o'lguncha ta'minlaysan. Bo'lmasa o'zindan ko'r.

Necha marta pul berdim senga. Nega izimdan qolmaysan?

Nima qilay aroq suyagimga singgan.

Endi uchrashmaymiz. O'sha voqeadan so'ng umuman ko'rishmasligimiz kerak. Balki hozir ikkovimizni ham poylashyotgandir.

Xullas gap tamom.

Menga pul bersang bo'ldi.

Mayli, oxirgi marta beraman. So'ngra bir-birimizni tanimaymiz. Kelishdikmi?

Kelishdik.

Menga asl nusxani berasan va jinoyat haqida og'iz ochmaysan.

Xo'p. Qachon berasan pulni?

Ertaga shu yerga shu paytda qo'lyozmani olib kel. Men ikki yuz ming so'm olib kelaman. So'ng tarqalamiz. Boshqa uchrashmaymiz. Boyagiday ishimga borib, ikki shishaga pul ber demaysan. Yana aytaman, shu oxirgisi!

Ko'ramiz.

Unda bermayman.

Bermasang hammasini oshkor qilishga to'g'ri keladi. Mening nomzodlik ishimni o'g'irlab, dissertatsiya yoqladi, mana mening qo'lyozmam, deb fosh qilaman. Sudlanasan. Buning ustiga odam o'lording. Xullas, qamoqda chirisan.

Men sudlansam, sen ham sudlanasan. Qilmishimiz teppa-teng.

Menga baribir. Qaytangi qamoqda ovqat berishadi.

Joldas, gapni cho'zishdan ne foya, Mirza sal hovridan tushdi, mendan pulingni ol-da, ichib yotavermaysanmi? Ammo keyin meni tinch qo'yasan. Bo'lmasa, o'ldirib yuboraman. O'zim ham hayotdan to'yiganman. Kelishdikmi?

Kelishdik.

Ertaga shu yerda yana uchrashamiz. Men ketdim.

Mirza Toyirov kafedan chiqdi.

## вЂњKarvonвЂќ Operatsiyasi

Mambet xonasiga kelib, chuqur nafas oldi: вЂњBu ishga ham so'nggi nuqta qo'yadigan payt keldibвЂќ.

Ayap Abdambetova hammasini gapirib berdi. Tezkor qo'lga olish guruhi taylorlandi. Operatsiya вЂњKarvonвЂќ deb ataldi. Toyirvni uyiga poyloqchi qo'yildi.

Ertasiga Mambet Ayap Abdambetovich bilan mashinasini panaga qo'yib, вЂњKarvonвЂќ kafesini kuzata boshladi.

Soat ikki yarimda Joldas keldi. Qo'lida eski portfelCH. Alanglab Toyirovni izladi. Ichkariga kirdi. So'ngra yana chiqdi va o'rindiqqa borib o'tirdi.

Soat uchdan o'ta boshladi. Toyirovdan darak yo'q edi. Yana ichgan shekilli, Joldas bir tomonga qiyshayib uqlab qoldi.

Mambet bilan Ayap Abdambetovich hayron. Nega Toyirov kelmayapti?

Balki ishdan bo'shamagandir, qo'ng'iroq qilib, o'zimni tanitmay gaplashaymi? deya so'radi Mambet.

Bo'pti, rozilik berdi Ayap Abdambetovich.

Qabulxonadagi qiz Toyirovning peshindan so'ng ishga kelmaganini aytdi. So'ng ministr ham Toyirovni izlayotganini bildirdi.

Mambet go'shakni qo'ydi.

Keyin uyiga telefon qilishdi. Xotini ham вЂњtushlikdan so'ng chiqib ketdibвЂќ, dedi.

Poyloqchi bilan bog'lan, dedi xavotirlangan Ayap Abdambetovich.

This is not registered version of TotalDoc Converter

Polyakchi, qayroqqa so'ng sev olib qolish uchun qo'sha qoladigan. Hozir uqida Toyirov uyidan ikkita katta sumka olib chiqib, b'Tin neksiyab T'oksiga solib katta tezlikda avtovakzal tomonga ketganini aytди.

Nega kelmadи ekan, uyidan chiqqaniga bir soat bo'lган? Ishga ham bormabdi. Chamasi u bizning rejalarimizni bilib qochgan, deya tusmolladi Ayap Abdambetovich.

Men ham shunday o'layapman. Qochib qayoqqa boradi? Qanday qochadi? Hozir samalyot yo'q. Har ehtimolga qarshi aeroportga xabar berib qo'yaylik, deb Mambet aeroportga qo'ng'iroq qildi. Temir yo'l vakzali organ xodimlarini ham ogohlantirdi. Shahar va tuman DAN xodimlariga ham qizil b'Tin Neksiyab T'okda, Mirza Toyirovni ushslash buyrug'i berildi.

Respublika prokurori, ichki ishlar vazirligi rahbari va tegishli xodimlari ishtirokida qisqa yig'ilish o'tkazildi.

Jinoyatchi qayerga yashirinishi mumkin, qanday qo'lga olinadi shu kabi savollar ustida mulohaza yuritildi.

Keyingi paytda jinoyatchilarning ko'pi Qozog'istonga qochib ketayapti. Chunki u yerning maydoni katta. Hatto ikki-uch oila yashaydigan olis ovullari ham bor. Buning ustiga hozir Qoraqalpog'istondan ko'p odamlar noqonuniy borib ishlab yurishibdi. Tili, dini, ko'rinishi bir xil xalq. Rossiyaga ham ketishi mumkin. Shuning uchun ushbu mamlakatlarga boriladigan har qanday transport nazoratga olinishi kerak.

Tez orada Taxtako'prikan xabar olindi. Qizil b'Tin Neksiyab T'okni qo'lga olish bo'yicha xabar kelmasdan oldin soat to'rt yarimlarda tuman markazidan davlat raqamidagi qizil b'Tin Neksiyab T'ok o'tgan, ichida faqat bitta odam. YPX xodimlari hukumat raqami bo'lgani bois avtomobilni to'xtatmabdi. Mashina to'g'rib T'ok Mulk b'Tok b'Tin Kandirlib T'ok yo'li bo'ylab ketibdi.

Tez izidan quvib ushlanglar. Vertolyot bilan bizlar ham yetib boramiz, deb topshiriq berildi.

b'Tin Kandirb T'okidan o'tib, Qozog'istonga boradigan yo'llar ko'rib chiqildi. Toyirov Taxtako'prikan sakson km olisda b'Tin Qo'shtrubab T'okdagи bitta cho'ponning uyiga yaqinlashib qolganda, soat yettilarda qo'lga olindi.

Tekshiruv chog'ida yonidan pistolet, ellik ming dollar, sumkalaridan kiyim-kechaklari chiqdi.

Jinoyatchi qo'liga kishan solinib Nukusga keltirilganda vaqt allamahal bo'lgan edi. Xodimlar ba'zilari uyiga, ba'zilari xizmatga tarqalishdi.

### Qo'lyozma

Mambet Kamolov jinoyatchini ertasiga tergov qildi. Joldasning tayyor dissertatsiyasini ozroq o'zgartirib o'ziniki qilib olganini, buning uchun Joldasga pul bergenimi Toyirov bo'yniga oldi.

Jinoyat yuz beradigan kuni Mirza Toyirov haydovchisi orqali Joldasga to'rt shishaga yetkulik pul berib yuborgani, Joldas ham pul olib kelgan yigit ilgari biror ishni bitirgan odamdir deb pulni olib qolgani ma'lum bo'ldi.

Sizday rahbar odamning qotillikka qo'l urishi mumkinligiga haliyam ishonolmayapman, dedi Mamet.

Vaziyat shuni taqozo qildi. Aslida o'ldirmoqchi emasdym. Berdiyor uyg'onib qoldi. Guvohni yo'qotishga qaror qildim.

Mambet so'radi:

Nega qochding? Kafega nega kelmaoding?

Kafe egasi tanishim edi. Soat ikkilarda qo'ng'iroq qildi. b'Tin Organ xodimlari pana-panadan bizning kafeni kuzatmoqda. Chamasi birorta residivistni ushlamoqchi. Sen bugun kelma. Ayol bilan kelsang ko'zga tushasanb T'ok, deb qo'ng'iroq qildi. Shunda bilib qoldim. Nopok yo'lidan yursang jazosi yengil bo'larmidi? Qochishga majbur edim, dedi Toyirov hech narsani yashirmay.

Qozog'istonga Qizilo'rdaga qum orqali b'Tin Neksiyab T'okda yetib olmoqchimiding?

Yo'q. O'sha yerga zo'rg'a yetib bordim. Hozir kuz qum qattiq. b'Tin Neksiyab T'okni cho'ponlarning b'Tin devitb T'oki yo b'Tin Uralb T'okiga almashtiraman, deb o'ylagandim.

b'Tin Qing'ir ishning qiyig'i qirq yildan so'ng ham ochiladib T'ok degan gap bor. Iflos yo'l bilan orttirilgan dissertatsiya yillar o'tgach fosh bo'ladi.

Jinoyat sababchisi Joldasning Toyirovni sog'in sigir qilib so'rishga omil bo'lgan dissertatsiya qo'lyozmasi Mambet Kamolovning stoli ustida yotibdi. Qo'lyozma Joldasni. Uning ism-sharfi qalam bilan chizilib, ustiga b'Tin Mirza Toyirov b'Tok deb yozilgan edi.